

## SAMARQAND-JIZZAXDA ISTIQLOLCHILARNING QIZIL ARMIYA QO'SHINLARIGA QARSHI QUROLLI HARAKATI (1920 – 1922-Y.)

**Qahramon Rajabov,**

*tarix fanlari doktori, professor,*

*O'zbekiston FA Tarix instituti bosh ilmiy xodimi*

**Annotatsiya.** *Tadqiqotda Bolsheviklar hokimoyati tomomnidan xalqning xohish-irodasi inobatga olinmasligi aholi o'rtasida norozilikni kuchaytirgan. Bolsheviklar hokimoyatiga qarshi milliy harakatlar boshlanishi va bu milliy harakatlarini "bosmachilik" xarakati deb noto'g'ri talqin etilishi, milliy harakat ishtirokchilarning qizil armiya qo'shinlariga qarshi janggovor harakatlari hamda qo'rboshilar faoliyati haqida ma'lumotlar aks etgan.*

**Kalit so'zlar:** *Turkiston ASSR, Bolsheviklar, Xiva xonligi, Buxoro amirligi, Qizil askarlar, Turkiston komissiyasi (Turkkomisiya), Turkiston byurosi (Turkbyurosi), "bosmachilik" xarakati, Qo'rboshilar, SHo'roi Islomiya» tashkiloti, «Milliy Ittihad» tashkiloti.*

**Annotatsiya:** *In the study, the fact that the Bolshevik government did not take into account the will of the people increased the discontent among the population. Information about the beginning of national movements against the Bolshevik government and misinterpretation of these national movements as a "repression" movement, the combative actions of the participants of the national movement against the Red Army troops, and the activities of the guards are reflected.*

**Key words:** *Turkestan ASSR, Bolsheviks, Khiva Khanate, Bukhara Emirate, Red Soldiers, Turkestan Commission (Turkkomisiya), Turkestan Bureau (Turkbyurosi), "printing" movement, Qorboshilar, "Shorai Islamiya" organization, "National Union" organization.*

**Kirish (Introduction).** Turkiston ASSRda 1920-yildan boshlab bolsheviklar siyosatining asl maqsadi tobora oydinlashib bordi. Bolsheviklar, bir tomondan, o'zlarini mehnatkash xalq himoyachilari sifatida ko'rsatib munofiq'larcha aholini aldadilar hamda sinfiy siyosat yuritishga intildilar. Ikkinchi tomondan, bolsheviklar va sovet davlatining mintaqadagi harbiy kuchlari zo'ravonlik va bosqinchilik siyosatini yuritib, 1920-yil fevralda Xiva xonligi va 1920-yil sentabrda Buxoro amirligi hududini bosib olishdi. Qizil askarlarning bunday bosqiniga qarshi 1920-yildan boshlab Xorazm va Buxoroda ham qurolli istiqloqlchilik harakati boshlandi. Bu holat Samarqand viloyatidagi harbiy holatga va kurash jarayoniga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

**Adabiyotlar tahlili (Literature review).** Ahmad Zaki Validiy To'g'on, Ali Bademci, Baymirza Hayit, Rajabov Q, Haydarov M, Keldiyev T, Turkistanli Abdullah Receb Baysun, O'runxo'jayev M kabi mualliflar o'rganilayotgan mavzu doirasida o'z nuqtai nazarlarini bildirganlar.

Biroq bevosita Samarqand-Jizzaxda istiqloqlarning qizil armiya qo'shinlariga qarshi qurolli harakati bilan bog'liq masalalar to'liq yoritilmagan.

Ko'plab tadqiqotlarda masalan, O'zbekistonning yangi tarixi 2-kitobda, Ali Bademci asarlarida Milliy harakat bilan bog'liq ma'lumotlar bor. Bundan tashqari, Validiy qalamiga mansub "Xotiralar" kitobining "Samarqandga ko'chish", "Jabbor qo'rboshi", "Anvar Posho vakillari", "Anvar Poshoning bosmachilari harakatiga qo'shilishi", "Bosmachilar safida va qizillar bilan dastlabki to'qnashuvlar", "Samarqand taraflarda ishlarning buzilishi", "Samarqand bosmachilari", "Chelakdagi janglar", "Yeryayloqdagi yig'ilishlar", "Mustafo Cho'qayevga maktub", "O'ratepa - Machay yo'li orqali Anvar Posho oldiga borish niyatimiz", "Dovul janglari", "O'smat va Samarqanddagi suhbatlar", "O'smat janglari", "O'smatda qabul qilingan qarorlar", "Oqtovdan Zarafshon vohasining ko'rinishi" va "Machay tog'laridan va Qizilqum yo'li orqali Toshkentga"[1;347-348] nomli fasllarida Samarqand viloyatidagi istiqloqlarning qizil armiyaga qarshi janglari, Validiy bilan qo'rboshilar o'rtasidagi hamkorlik masalalari yoritilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ushbu maqolani yoritishda muammoga tarixiylik hamda haqqoniylik tamoyillari asosida yondashildi, shuningdek, belgilangan vazifalarni to'g'ri hal etishda O'zbekiston tarixining yangi metodologik konseptual tamoyillariga tayangan holda retrospektiv, muammoli-xronologik, tipologik, tarixiy genetik, tarixiy davrlashtirish va statistik kabi usullardan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama (Result and Discussions).** 1920-yilning boshlarida Samarqand viloyatida sovet rejimiga qarshi qurolli xarakat yanada kuchaydi. Qizil askarlar naysasi yordamida zo'ravonlik bilan o'rnatilgan sovet tuzumi o'lkaning tub aholisi tomonidan o'z manfaatlariga zid xokimiyat sifatida qabul qilindi. Bolsheviklar tomonidan tuzilgan Sovetlar va ularning ijroqo'mlari asosan yevropaliklardan tashkil topgan bo'lib, aholi orasida obro'-e'tiborga ega emas edi. O'lkadagi bu vaziyat sovet Rossiyasi siyosiy rahbariyatining nihoyatda tashvishga solib qo'ydi. Markaz o'lkada o'z ta'sirini kuchaytirishga intildi. Markazning Turkistondagi "ishonchli" hokimiyat tuzilmalari, dastavval 1919-yilda barpo etilgan Turkiston komissiyasi (Turkkomisiya) va 1920-yilning yozida tashkil topgan RKP (b) MKning Turkiston byurosi (Turkbyurosi) edi. Ular Kremldagi rahbariyatning siyosati, roli va manfaatlari ifodachisi bo'lib, xaqiqatda Turkiston ASSR dagi barcha hukumat tuzilmalari ustidan nazorat qilib turardi.

Ular bilan bir qatorda Turkiston ASSR Oliy Xalq Xo'jalik Kengashi, RSFSR xalq komissarliklarining maxsus vakillari ham bor bo'lib, bu mas'ul tashkilotlarda faoliyat ko'rsatgan bolsheviklar O'rta Osiyo mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini Markaz manfaatlari yo'lga yo'naltirib turishlari lozim edi. Markaz ta'sirini mustahkamlash maqsadida, o'lkadagi mahalliy kadrlar ustidan nazoratni amalga oshirish uchun ma'sul xodimlar yuborib turish ancha kuchaydi. 1920-1923-yillarda Turkistonga, jumladan, Samarqandga ham Markazning 1400 ga yaqin emissar nazoratchilari yuborilgan edi. [8;163].

Markazning Turkiston o'lkasidagi hokimiyat organlarini, iqtisodiy hayotni qattiq markazlashtirish siyosati hamda Markazning vakolatli organlari Turkkomissiya, Turkbyuro, keyinchalik O'rta Osiyo byurosi, O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tomonidan nazorat qilib va boshqarib turishi mahalliy xalqlarning qadr-qimmatini kamsitdi. Turkiston ASSRdagi respublika va mahalliy organlarni, jumladan, Samarqand viloyati boshqaruv organlarini, ularning raxbarlarini mustaqilligi va erkinligi yo'q edi. Viloyatdagi mahalliy organlar Sredazbyuro (O'rta Osiyo byurosi) va Sredaz EKASO (O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi) tomonidan to'la nazorat qilib turilar edi.

Mahalliy idoralarda mustaqillikni yo'qligi, xalq xohish-irodasining nazar-pisand qilinmasligi tub aholining noroziligini tobora kuchaytirdi. Xalq vakillari – dexqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, ruhoniylar, ziyolilar sovet rejimiga qarshi kurashuvchi istiqloqlar tomoniga ko'plab o'ta boshladilar.

1921-yilning boshlarida Samarqand viloyatining barcha uyezdlarida "bosmachilik" xarakati avj oldi. Samarqand viloyati ijroiya komiteti prezidiumining 1921-yil 15-fevraldan 1-aprelga qadar viloyatning siyosiy ahvoli haqida Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissarligiga yozgan ma'ruzasida shunday deyilgan: "Hisobot davrining boshlang'ich paytida Samarqand viloyatida bosmachilik harakati alanga olgan va kengayishga moyil bo'lgan. Viloyatning birona uyezdini ham bu harakatdan xoli deb bo'lmaydi. Bu masalada, ayniqsa, Xo'jand uyezdida ahvol og'ir hisoblanadi va bu yerni "bosmachilik" harakatining beshigi deb hisoblasa bo'ladi. Bu uyezdga bosmachilar hujum qilib hamma joyni vayron qildi, ko'p hollarda davlat zavodlariga zarar keltirdi. Deyarli shunday ahvol O'ratepa uyezdida ham saqlanib turibdi... Kattaqo'rg'on va Samarqand uyezdlarida bu harakat davom etmoqda va kengayishga moyilligi bor. Jizzax uyezdida bu harakat aytish mumkinki, o'rtacha xolatda". [12]

Shu hujjatda dehqonlarni mahalliy hokimiyat organlariga munosabati to'g'risida quyidagicha fikr bildirilgan: "Haqiqatga ko'z yummasdan ochiq aytish kerakki, qishloq kambag'allarini sovet hokimiyatiga munosabati deyarli yaxshi emas.

Dehqonlar bizning har bir vakilimizga g'ayritabiiy kimsadek qaraydi va ulardan tezroq qutulish uchun barcha kuchlarini ishga solishga tayyor". [12]

Mahalliy aholini sovet hokimiyatiga dushmanlik kayfiyatida ekanligining asosiy sabablaridan biri oziq-ovqat razvyorstkasini joriy qilinganligida ekanligi hujjatda ko'rsatib o'tilgan. Dehqonlardan qishloq xo'jalik mahsulotlari majburan tortib olinib, uning o'rniga oziq-ovqat organlari tomonidan zarur buyumlar, jumladan, manufaktura, kerosin va boshqa narsalar beriladi, deb va'da qilingan. Dehqonlar oziq-ovqat organlariga borganda razvyorstkaning qolgan qismini ham bajarish to'g'risida ularga buyruq berib, bu buyruqni bajargandan keyin ham dehqonlarga xech narsa bermasdan ularni xonavayron qilishgan. Tabiiyki, sovet organlarining dehqonlarga bunday munosabati ularni sovet hokimiyatiga qarshi qilib qo'yganligi va dehqonlar "bosmachilar" tomoniga o'tib ketganligi ushbu hujjatda xolis ko'rsatilgan.

Sovet hokimiyati-yillarida harbiy, militsiya, partiya organlari "bosmachilar" tinch aholini talagan, degan uydirmalarni tarqatganlar. Vaxolanki, "bosmachilar" asosan sovet organlarida xizmat qilib, xoinlik qilgan kimsalarning boyligini olib, ularni aholiga tarqatgan. Ularga mahalliy boylar o'z ixtiyori bilan yordam bergan. "Bosmachilar"ga ot-ulov, oziq-ovqat mahsulotlari kerak edi. Bularni qayerdandir topish zarur bo'lgan. Shuning uchun ham ular sovet organlarida xizmat qilgan sotqinlarni va o'ziga to'q, ortiqcha oziq-ovqat, ot-ulovlari bor boylarning xonadonlaridan kerakli mahsulotlarni olishga majbur bo'lgan. Masalan, 1921-yil 4 oktabrda sovet organlarida xizmat qilgan Boboxonov nomli fuqaro Rossiya Kommunistik yoshlar uyushmasining Moskvada bo'lib o'tgan Butunrossiya syezdidan qaytib kelgan. U O'ratepa uyezdining Ganchi volostidagi Ganchi qishlog'ida yashayotgan ota-onalari bilan ko'rishish maqsadida o'z yurtiga borgan. O'sha joyda uni "bosmachilar" ushlab o'ldirganlar va uyidagi ayrim buyumlarni olib ketishgan. [12]

Bu dalil shundan darak beradiki, bolsheviklar va sovet organlari rahbarlari aytganidek, "bosmachilar" tinch aholini "talamagan", aksincha, sovet hokimiyatiga, ularning joylardagi organlariga xizmat qilgan yerli aholi vakillaridan chiqqan sotqinlarni jazolagan va mol-mulkini olib, ozodlik uchun kurashayotgan yigitlarni ta'minlagan.

Ba'zi hollarda "bosmachilar"ning ayrim vakillari sovet organlariga kirib olib, ularning maxfiy bulgan sirlarini qo'rboshilarga yetkazib turgan. Bu haqida turkiyalik tadqiqotchi Ali Bodomchi shunday yozadi: "...Turobbek Ajiqishloqdan bo'lib, avval rus CHKsida xodim bo'lib ishlagan. Faqat bu xizmati mobaynida doimo Turkiston milliy birligi (TMB) va qo'rboshilarga ma'lumot berib turgan, qo'rboshilarning qo'lga tushib qolishining oldini olib, ularni ogohlantirib turgan".[2;421] Bu

ma'lumotga e'tibor beradigan bo'lsak, qo'rboshilar o'z xavfsizliklari uchun sovet organlari ichiga odam kiritib, ular orqali o'zlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni bilib turishgan.

Bundan tashqari "bosmachilar" tinch aholi, ayniqsa, o'ziga to'q va badavlat odamlar tomonidan doimiy ravishda qo'llab-quvvatlab turilgan. Ayrim boylar sovetlarga qarshi kurashda o'zlari shaxsan ishtirok eta olmay, istiqloq uchun kurashayotgan "bosmachilar"ga moddiy yordam qilib turganlar.

Ali Bodomchining ma'lumotlariga qaraganda, Turkistonda sovet rejimiga qarshi kurashayotgan qo'rboshilar va ularning yigitlariga maxalliy boylar juda katta yordam berib turishgan. U o'zining "Turkiston milliy istiqloq harakati: qo'rboshilar va Anvar Posho (1917-1934 y.)" nomli asarida bu haqda shunday yozadi: "Qo'rboshilar yordamning ko'p qismini boylardan olishar edi. Boylar avvaliga o'n-o'n besh ming yigitlarni, keyinchalik oltmish-yetmish ming yigitni boqqan. Boylarning qanday inson ekanligini shundan xam bilsa bo'ladi. Kiyim-kechak, oziq-ovqat, ot va arava singari extiyojlarning asosiy qismini boylar qoplar edi.

1917-yilgacha oq ruslar, armanilar, musaviylar qo'l ostida qattiq aziyat chekkan xalq milliy harakat natijasida mahalliy boylar tomonidan bunday mushkulotdan qutuldilar. Masalan, andijonlik boylardan Mirkomilboy kambag'allarga beminnat yordam sifatida foizsiz qarz bergan. Milliy harakatga yordam berib turganligi uchun Mirkomilboy ruslar tomonidan o'ldirilgan". [2;436]

Sovet hokimiyati tomonidan boylar ham tazyiq ostiga olingandan so'ng ayrim qo'rboshi guruhlar zaruriyatdan kelib chiqib, janglarda halok bo'lgan otlarning o'rnini qoplash va o'z saflariga yangi qo'shilgan yigitlarni otlar va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlash maqsadida ayrim hollarda bozorlarga bostirib kirib, boy savdogarlarning otlarini va oziq-ovqat mahsulotlarini olib ketishga majbur bo'lgan. Misol uchun 1921-yil 23-oktabrda bir guruh "bosmachilar" Samarqand viloyati O'ratepa uyezdi Sangzor rayonidagi O'smat bozoriga hujum qilib, boy savdogarlarning 16 ta otini, pul va buyumlarini olib ketgan[12], deb ko'rsatiladi arxiv hujjatlarining birida.

Shuni aytish kerakki, 1921-yil oktabr oyida "bosmachilar" O'ratepa uyezdida sovet organlariga qarshi faol kurash olib borganlar. Mahalliy militsiya organlarining 1921-yil oktabr oyida uyezd hududida "bosmachilar" bilan to'qnashuvlari to'g'risidagi ma'lumotlarida uyezdning har xil qishloqlarida 4, 23-28 oktabr kunlari "bosmachilar" bilan bo'lgan janglar to'g'risida xabar berilgan. [12] Bu dalil shundan darak beradiki, Samarqand viloyati O'ratepa uyezdi hududida 1921-yil oktabr va undan oldingi hamda keyingi oylarda "bosmachilar" qizil armiyaga qarshi keskin kurash olib borgan. Xullas, 1921-yilning bahorida Samarqand viloyatida sovet

rejimiga qarshi qurolli harakat keng avj olgan va u o'sha-yilning kuzida ham o'zining avvalgi holatida bo'lgan.

Bu davrda Farg'ona va boshqa viloyatlarda bo'lganidek, Samarqandda ham istiqloqlilik harakati kuchaygan edi. Samarqand uyezdi ijroiya komitetining 1922-1923 xo'jalik-yilidagi faoliyati to'g'risidagi xisobotida ko'rsatilishicha, 1921-yilning oxiridan 1922-yilning o'rtalarigacha Farg'ona vodiysida "bosmachilik"ning katta portlashi yuz berdi va bu holat Samarqand viloyatiga ham ko'chib o'tdi. Istiqloqlilik harakati kuchayishining asosiy sababi sovet hokimiyati tomonidan xo'jalikning vayron qilinishi va mahalliy xalq turmushining hisobga olinmaganligi bo'lgan, deb e'tirof etilgan hisobotda. [15]

1922-yilda Samarqand viloyatida qizil armiyaga qarshi istiqloqlilar otryadlari keskin kurash olib bordilar. Bu to'g'risida ko'plab arxiv hujjatlari guvohlik beradi.

1922-yil may oyining boshida istiqloqlilar otryadi Kattaqo'rg'on uyezdining Qirqyigit qishlog'ida sovet organlariga hujum qilib, qishloq ijroqo'mi, shuningdek, Mitan volosti ijroqo'mi va rayon militsiyasi idorasini bosib olib, butun qurollahalarni qo'lga kiritishgan. Volost va qishloq ijroqo'mi xodimlari, rayon militsiyasi militsionerlari atrofdagi qishloqlarga qochib qutildilar. Militsiya boshlig'i Oltiboyev To'rtko'l qishlog'iga chekingan. Bu voqeadan xabar topgan Samarqand oblasti "bosmachilik"ka qarshi kurash favqulodda uchligining boshlig'i A. Yormuxammedovning 1922-yil 3 maydagi ma'lumotiga ko'ra, Mitan volostiga O'rmonov boshchiligida 50 nafar qizil askarlar otryadi yuborilganligi ma'lum qilingan. Bu otryad Qirqyigit qishlog'iga bostirib kirganda, istiqloqlilar ularga qarshi o'q uzgan va har ikkala otryad o'rtasida jang bo'lgan. Istiqloqlilar qizil askarlar otryadi ustidan g'alaba qozongan. Biroq qizil askarlarga qo'shimcha xarbiy kuch yetib kelgandan keyin istiqloqlilar otryadi chekinishga majbur bo'lgan. Qizil askarlar istiqloqlilar orqasidan quvib yeta olmagan. Hujjatda ko'rsatilishicha, istiqloqlilarning otlari chopqir bo'lib, qizil askarlar otlaridan ustun bo'lganligi uchun ular orqaga qaytishga majbur bo'lgan. Istiqloqlilarning jangni to'xtatishga majbur qilgan narsa qizil askarlarni miltiqlardan tashqari pulemyotlar bilan qurollanganligi ham bo'lgan. Qizil askarlar otryadi istiqloqlilarga hech qanday ziyon yetkaza olmay, yana Kattaqo'rg'on shahriga qaytib kelishga majbur bo'lgan. Qizil askarlar Mitan volostida 50 kishi va bir pulemyotdan iborat garnizon tashkil qilib, uni qoldirib ketishgan. [17]

Istiqloqlilarning sovet tashkilotlariga qarshi hujumlari, qizil armiya bilan janglari doimiy ravishda bo'lib turar edi. Bunday janglar Samarqand viloyatining boshqa joylarida ham muntazam sodir bo'lib turgan. 1922-yil avgust oyining boshlarida Qoraqulbek qo'rboshi rahbarligida har xil sistemali vintovkalar bilan qurollangan 35 nafar istiqloqlilar Kattaqo'rg'on volostining Qorako'l qishlog'iga

bostirib kirib, sovet idoralarini bosib oldilar va hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Bu voqeadan xabar topgan Samarqand oblastida "bosmachilar" bilan kurash bo'yicha favqulodda uchlik raisi A. Yormuxammedov Kattaqo'rg'on volosti Qorako'l qishlog'iga shoshilinch 70 nafar qizil askarlardan iborat o'tliq otryad yuborgan. Ular qishloqqa yetib kelganda istiqolchilar ularga qarshi o'q uzgan va o'rtada keskin jang bo'lgan. Qizil askarlar ko'pchilik va yaxshi qurollangan bo'lganligi uchun istiqolchilar 21-avgust kuni chekinishga majbur bo'lgan. Qizil askarlar otryadi istiqolchilar orqasidan quvib Chorvoq-Bola qishlog'iga yetib borganda qishloq masjididan bir guruh odamlar qizil askarlardan qochib qutilishga harakat qilib qochishi vaqtida bir sandiqchani tashlab qochganlar. Qizil askarlar sandiqchani ochib qaraganlarida undan "nagan" revolveri va 73 dona "berdanka" rusumli harbiy miltiqning o'qi (patron) chiqqan. [17]

Bu fakt shundan dalolat beradiki, istiqolchilar safi doim kengayib borgan. Istiqolchilarni barcha qishloq aholisi qo'llab-quvvatlab turgan. Qishloq aholisi ularni oziq-ovqat, otlarini esa yem-xashak bilan ta'minlagan. Tinch aholi vakillari qizil askarlarni kelishidan istiqolchilarni doimiy ravishda xabardor qilib turgan. Qizil askarlar qishloq aholisidan istiqolchilarni so'raganda, ularga bilmadik yoki ko'rmadik, deb javob berishgan. Xullas, istiqolchilar tinch aholiga yaqin bo'lgan, mahalliy tinch aholi ularni o'z xaloskori deb hisoblagan. Qishloq aholisi uchun sovet organlari yot bo'lgan, bosqinchilik va talonchilik bilan shug'ullangan qizil armiya jangchilari asosan yevropaliklar (ruslar va boshqalar)dan tashkil topganligi uchun ularning tilini tushunmagan va ongli ravishda istiqolchilarni qizil askarlardan yashirganlar.

Samarqand viloyatining uyezdlarida 1922-yilning noyabrida yana "bosmachilik" harakati avj oladi. Qo'rboshilarning 10-30 nafar yigitlardan tashkil topgan mayda guruhlari qizil armiya otryadlari va sovet organlariga qarshi kurash olib boradi. Bu paytda Sharqiy Buxoroda "bosmachilik" harakatining kuchayishi Samarqand viloyatidagi istiqolchilarning mayda guruhlari yirik guruhlarga birlashishiga turtki bo'ldi.

Samarqand viloyati ijroya komitetining 1922-yil 5-15-noyabrdagi faoliyati haqidagi ma'ruzada "bosmachilik" harakati viloyatda, ayniqsa, joriy-yilning mart-avgust oylarida keskin avj olganligi qayd qilingan.

"Bosmachilik" harakatining kuchayishi sababi ular safiga boy dehqonlar (quloq unsurlari)ni o'z boyliklarini saqlab qolish niyatida qo'shilishi, shuningdek, sovet hokimiyatining xatolaridan norozi bo'lgan kishilar va nihoyat oddiy quloq unsurlar (elementlar) ni qo'shilishidir, deb qayd qilingan ushbu hujjatda. [12]

Butun viloyatda istiqolchilik harakatining rivojlanishi sovet hokimiyatining o'z tomonlarini ko'rsatdi va harakat tobora kuchayib bordi. Dastlab sovet organlari

qo'zg'olonchilarga qarshi kurash uchun qizil armiya va oz sonli, tashkiliy jihatdan uyushmagan militsiyaga ega edi hamda ular bunday katta vazifani bajarish imkoniyatiga ega emas edi.

Qizil armiya qo'mondonligi tomonidan "bosmachilik" harakati kuchayishi bilan O'ratepa voqealarini tugatish maqsadida bu yerga katta miqdorda harbiy qismlar yuborildi. "Bosmachilar" bilan kurash uchun bitta polk yuborilgan edi va Samarqand viloyati qo'shinlari qo'mondoniga armiya qo'mondoni xuquqi berildi va Turkiston ASSR respublika Revvoyensoveti (harbiy inqilobiy kengashi) tomonidan unga "bosmachilar"ga qarshi kurashga rahbarlik qilish vazifasi yuklandi.

Turkiston ASSRda, jumladan, Samarqand viloyatida istiqloqlilik harakatining kuchayishi sovet va partiya organlarini tashvishga soldi. Ular turli yon berishlar orqali qurolli harakatni zaiflashtirishni mo'ljalladilar. Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 1922-yil 25-iyuldagi № 88-raqamli qaroriga asosan Turkiston Respublikasida musulmon xalq sudlari, qozixonalar tiklanganligi "bosmachilik" harakatini keyinchalik nisbatan susaytirdi va mahalliy aholining sovet hokimiyati tomoniga o'tishiga asta-sekinlik bilan yo'l ochib berdi.

Bundan tashqari qizil armiya qo'mondonligi Samarqand viloyatiga "bosmachilar" ga qarshi kurash uchun XI otliq diviziyani jo'natdi. Arxiv hujjatlarida ko'rsatilishicha, Samarqand viloyatida otliq harbiy qismlarning kelishi bilan "bosmachilik" harakatida parokandalik boshlandi va qizil armiyaga qarshi kurashga kuchi yetmasligini sezgan "bosmachilar" butun otryadlari bilan sovetlar hokimiyati tomoniga o'ta boshladi. 1922-yil Samarqand viloyatida "bosmachilikka" qarshi kurash davrida ixtiyoriy ravishda 1533 nafar "bosmachi" sovet hokimiyati tomoniga o'tdi. [14]

Sovet hokimiyatining rasmiy hujjatlarida ko'rsatilishicha, "bosmachilar" ustidan erishilgan g'alabalar tufayli Samarqand viloyatida 1922-yil oxirida favqulodda troyka (uchlik) tugatildi va "bosmachilar" bilan kurash to'la ravishda harbiy qo'mondonlik zimmasiga topshirildi. [12]

Biroq ushbu hujjatda e'tirof etilishicha, oxirgi vaqtlarda viloyatning ayrim uyezdlarida, jumladan, Jizzax va Samarqand uyezdlarida "bosmachi" otryadlari yangidan paydo bo'lgan hamda ular sovet qurilishi ishlariga xalaqit berayotganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Bu holat shundan dalolat beradiki, Samarqandda ham mahalliy aholi doimiy ravishda sovet hokimiyati va qizil armiyaga qarshi qurolli kurash olib borgan.

Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasining 1921-yil 15-noyabrda bo'lib o'tgan yig'ilishida «bosmachilik» harakatiga qarshi kurash masalasi maxsus muhokama qilingan. Sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat viloyatning barcha hududlarida, ayniqsa, Samarqand, Kattaqo'rg'on va Xo'jand uyezdlarida keng quloqch yoyganligi

e'tirof etilgan. Qizil askarlar va militsiya tomonidan ularga qarshi olib borilayotgan janglar natijasiz tugaganligi, buning uchun sovet qo'mondonligi eng keskin choralarni qo'llashi lozimligi, viloyatdagi militsiya tarmoqlarini kengaytirish zarurligi ta'kidlangan. Xullas, Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasi qoshida favqulodda «uchlik» guruhini tashkil etib, unga keng vakolatlar berilgan. [11] Bunday guruhlar faoliyati natijasida faqat Samarqand uyezdida 1921-yil oxirlarida yuzdan ortiq qo'zg'olonchilar qo'lga olinib, otib tashlangan. [14]

Shuningdek, O'ratepada qizil askarlarga qarshi kurashayotgan mashhur qo'rboshi Abdul Qodirxon sovet hokimiyati vakillari bilan muzokara olib borib, shartnoma tuzgan. Bu shartnomaga ko'ra Abdul Qodirxon o'z bayrog'i, tug'i va muhrini sovet hokimiyati vakillariga topshirib, ixtiyoridagi yigitlari bilan qurolli qarshilikni to'xtatgan. [4] Sovet hokimiyati Abdul Qodirxon va uning yigitlarining xavfsizligini ta'minlash va ularni ozod yurishiga kafolat bersa ham, keyinchalik o'z fikridan qaytib, ularni qatag'on qilgan.

Samarqand viloyati ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining 1922-yildagi hisobotida ta'kidlanishicha, bu paytda qurolli harakat vakillari sovet hokimiyatiga qarshi kuchli tashviqot ishlarini olib borishgan. Bu jarayon, ayniqsa, Xo'jand, Samarqand, Jizzax uyezdlari va O'ratepada avj olib, bu hududlardagi qurolli harakat guruhlarining safi tobora kengayib borgan. Istiqloqlilik harakatining ta'siri nafaqat qishloqlarda, balki shahar atroflari va Samarqand shahri bo'sag'asida ham kuchli bo'lgan. Sovet hokimiyati tomonidan yuritilgan adolatsiz siyosat, xalq qo'lidan oziq-ovqat mahsulotlari va g'allaning tortib olinishi, xususiyl mulkning bekor qilinishi va dindorlarga nisbatan tazyiqning kuchayishi bolsheviklarga nisbatan jamiyatdagi barcha tabaqalar o'rtasida norozilik va qahr-g'azabni kuchaytirdi.[16] Ko'plab kishilar qizil armiyaga qarshi kurashayotgan vatanparvarlar safini to'ldirishgan.

Xo'jand uyezdidagi Ganchi volosti bu paytda O'ratepadagi istiqloqlilik harakatining muhim markazi hisoblangan. Ganchi volostidagi Mujum qishlog'ida yashovchi Xolbo'ta Eshon «SHo'roi Islomiya» tashkilotining a'zosi bo'lib, u 1917-yili shu tashkilot tomonidan shariat qozisi lavozimiga tayinlangan edi. Oktabr to'ntarishidan keyin bolsheviklar va sovet hukumatining islom diniga qarshi turganligi, xalqning urf-odatlarini va an'analari poymol etilayotganligini ko'rgan Xolbo'ta Eshon sovet hukumatiga qarshi tashviqotni avj oldirgan. Xolbo'ta Eshonni sovet hokimiyati nohaq ravishda 2 oy davomida qamab qo'ygan. U qamoqdan chiqqach, istiqloqlilar safiga qo'shilib, sovet hokimiyatiga qarshi kurashgan. Qizil askarlarga qarshi olib borilgan murosasiz janglarning birida Xolbo'ta Eshon o'zining 80 nafar yigitidan ayrilgan va orqaga chekinishga majbur bo'lgan. Ammo u keyinchalik yana kuch to'plab, Ganchi volostida paydo bo'lgan hamda bu yerdagi barcha bolsheviklar va ularning tarafdorlarini yo'qotgan. Xuddi shu vaqtdan

boshlab Xolbo'ta qo'rboshi O'ratepadagi sovet tuzumiga qarshi qurolli harakatning yo'l boshchisiga aylangan va uning qo'l ostida 600 nafardan ortiq yigit jang qilgan. Xolbo'ta qo'rboshi guruhiga mahalliy aholi doimo katta madad berib turgan. Bolsheviklar tomonidan Matcho bekligi (O'ratepa atroflari va tog'larida 1917-1923-yillarda Matcho bekligi nomli mustaqil mahalliy hukumat faoliyat ko'rsatgan) tugatilgandan keyin ham Xolbo'ta qo'rboshi qizil armiyaga qarshi o'z faoliyatini davom ettirgan. [13] Bundan tashqari 1922-yili Xo'jand uyezdida harbiy vaziyat keskinlashgan. Qo'zg'olonchilar tomonidan bu paytda O'ratepa shahri uch tomondan o'rab olingan bo'lib, bu yerlarda sovet hokimiyati asosan tugatilgan.

Samarqand uyezdi ijroiya qo'mitasi raisi Mirusmonov va umumiy bo'lim boshlig'i Shishkinning Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasiga taqdim etgan bildirishnomasida ko'rsatilishicha, sovet rejimiga qarshi qurolli harakat tobora keng quloq yoyib, bu paytda u siyosiy tusga ega bo'lib bormoqda. 1921-yilning oxiri va 1922-yilning o'rtalarida "bosmachilik" harakati Farg'ona vodiysida rivojlanishdan tashqari Samarqand viloyatida ham o'ta jiddiy ko'rinish olgan. Bu haqda yuqoridagi hujjatda alohida ravishda ta'kidlab o'tilgan. [16]

Bolsheviklarning turli anjumanlari va partiya konferensiyalarida Samarqand viloyatidagi qurolli muxolifat harakatiga qarshi kurash yo'llari belgilab olinib, qo'rboshi guruhlarining kuch-kudrati tobora ortib borayotganligi e'tirof etilgan va tan olingan. Bu konferensiyalarda sovet tuzumiga qarshi harakatni susaytirishdagi asosiy vazifa mehnatkashlar ommasiga bolshevistik g'oyalarni singdirib borish ekanligi ta'kidlangan. Masalan, 1922-yil boshlarida o'tkazilgan Turkiston Kompartiyasi (TKP) Samarqand viloyat-shahar partiya qo'mitasining 7-viloyat konferensiyasi barcha kommunistlar oldiga 1922-yil 1-martdan to 1923-yilning 1-martigacha viloyat hududida «bosmachilik» harakatini tugatish vazifasini qo'ygan. [6;168]

Konferensiyada Samarqand viloyatida «bosmachilik» harakati juda tez sur'atlar bilan rivojlanayotganligi, alohida kichik guruhlar birlashib, uyushgan katta guruhlarini tashkil etayotganligi, bu harakatga boshchilik qilayotgan qo'rboshilar soni oshayotganligi ma'lum qilinadi. Shuningdek, partiya, sovet va hukumat arboblarni o'ldirish odatiy hodisaga aylanganligi ham aytib o'tiladi. Mazkur konferensiya partiyaning viloyat-shahar qo'mitasi oldiga qurolli harakatni tugatish uchun quyidagi chora-tadbirlar ko'rish zarurligini alohida ta'kidlab o'tadi:

hamma tashkilot va organlar o'z faoliyatini sovet hokimiyatining dushmanlariga zarba berishga safarbar etsin;

mahalliy xalqlardan militsiya guruhlarini tashkil etilsin;

mahalliy xalq orasida aksilinqilobiy kuchlarga qarshi doimiy ravishda tashviqot va targ'ibot ishlari avj oldirilsin;

har bir uyezdga viloyatning mas'ul xodimi rahbarligida maxsus ekspeditsiya (otryad yoki komissiya) yuborilsin. [16]

Butun Turkiston mintaqasida bo'lgani singari Samarqand viloyatidagi sovet rejimiga qarshi qurolli harakatni yagona maqsad sari yo'naltirishda taraqqiyparvarlar (jadidlar), milliy ziyolilar va ulamolar katta rol o'ynashdi. Xususan, «Turkiston Milliy Birligi» (TMB) va «Milliy Ittihad» tashkiloti a'zolari Samarqandda ham sovet tuzumiga qarshi kurashni uyushtirishda jonbozlik ko'rsatishdi.

«Turkiston Milliy Birligi» tashkilotining 6-kongressi 1921-yil 5-7-sentabrda Samarqandda yarim yashirin holatda o'tkazildi. Samarqanddagi kongressda TMBning 24 banddan iborat Nizomi va Turkiston milliy bayrog'i qabul qilindi. Ushbu kongressni tayyorlashda Ahmad Zaki Validiy (1890 – 1970) bilan birgalikda milliy rahbar xodimlardan To'raqul Jonuzoqov (1893-1921) muhim ishlarni bajarishdi.

Samarqand kongressi Turkiston mintaqasidagi istiqloqlilik harakatini g'oyaviy jihatdan jiplashuviga katta xizmat qildi. Validiyning yozishicha, anjumanda butun Turkistondagi qo'rboshilar guruhlarini bilan aloqani mustahkamlash va har bir qo'rboshining huzuriga siyosiy maslahatchilar yuborish to'g'risida qaror qabul qilindi.[9; 326-328]

Kongress tugagach, Samarqand viloyatidagi istiqloqlilarning rahbarlaridan biri Ochilbek qo'rboshi huzuriga siyosiy maslahatchi va g'oyaviy rahbar sifatida TMB Markaziy Qo'mitasi a'zosi, o'zbek ziyolilaridan Qori Komil yuborildi. Bahrombek qo'rboshi yoniga Samarqand ziyolilaridan Qori Muhammad, Abdulhamid va ozarbayjon Ozodbek jo'natildi. Validiyning shaxsan o'zi Samarqand, Buxoro va Xorazmda harakat qilayotgan bir qator qo'rboshilarning qarorgohida bo'lib, ularni umumiy dushmanga qarshi ayovsiz kurash olib borishga chaqirdi va o'zaro birdamlikka chorladi. 1921-yil noyabr - 1922-yil mart oylarida u Samarqand, Jizzax, Forish, Qo'ytosh, Nurota, Kattaqo'rg'on, Shahrisabz, G'uzor, Kasbi orasida doim ot ustida yurib, tashkiliy ishlar bilan shug'ullandi. Bahrombek (Samarqand), Jabborbek va Doniyolbek (Shahrisabz va G'uzor), Qoraqulbek (Kattaqo'rg'on), Mulla Abdulqahhor va Hamroqul (Nurota) huzurida bo'lib, qo'zg'olonchilar bilan turli kengashlar o'tkazdi. Validiy Samarqand va Jizzax oraliqida bir necha marta qizil askarlar bilan jangga kirdi, bosqinchilarni o'ldirdi. Darvoqe, Validiyning Zarafshon vodiysida yashirinadigan beshta manzili bo'lgan.[9; 339-354]

Validiy sovet hokimiyatiga qarshi qo'zg'olonchilar va ularning rahbarlari «elni talovchi, bosqinchi» emasliklarini, balki «o'z vataniga sodiq, fidoyi, dunyo ahvolidan voqif kishilar» ekanliklarini keyinchalik yozgan xotiralarida faqat birgina Samarqand viloyati qo'rboshilari misolida ham yaqqol ko'rsatib bergan edi.[9; 354]

Bu holatni Ahmad Zaki Validiy To'g'on umrining oxirida yozgan "Xotiralar" kitobining "Samarqandga ko'chish" nomli faslida quyidagicha tasvirlagan: "Men ozodlik kurashchilari bilan yaqindan aloqa o'rnatish va sentabrda bo'ladigan syezdga tayyorgarlik ko'rish uchun 5-avgustda bir o'zim otda Karmana orqali Samarqandga qarab yo'lga chiqdim. Ayolim va Xoris Sisanboyev degan yordamchi askarim temir yo'l bilan ketdilar. Men tamoman o'zbek dehqoni kiyimida edim. Shunday bo'lishiga qaramasdan, men rus askarlari bor joylarni chetlab o'tdim. Qo'rg'on degan bir qishloqqa kelganimda bu yerda ruslar borligidan xabar topib, ularga duch kelmaslik uchun boshqa yo'llar orqali kechga yaqin Oyobod degan joyda Kumushota maqbarasi yonida faqirona kun ko'radigan shayxning xonaqohida tunadim. Otinga yem berdi. O'zimga taom tayyorladi. Bu talqon bo'lib faqirlar taomi edi. Ustimga yopinadigan choyshab ham berolmaganidan aytib, juda xijolat bo'ldi, uzr ham so'radi.

Yarim kechagacha suhbatlashdik. Dunyo ishlaridan yaxshigina xabardor ekan. U yerlarda yigitlari bo'lgan Qoraqulbek bilan tanish ekan. Tongda namozga uyg'otdi. Birga namoz o'qidik. So'ng shirchoy keltirdi va birgalashib ichdik. U bilan do'st bo'ldik. Oradan bir-yil o'tgach, Qoraqulbek bilan birga ruslarga qarshi jang qilganimizda yana bu shayxning xonaqosida bo'ldik. U Qoraqulbekka meni aytgan ekan: "Kim bilsin, balki Xizrdir". Qoraqulbek shayxni ko'rgach: "Mana, Xiziringizni olib keldim", - deya meni ko'rsatdi. Yana bir kecha bu shayx yonida qoldim. Ayolim Nafisa jamiyatimizning Qo'zi Haydar degan ziyoli a'zosining bog'iga tushgan edi. Men ham u yerga bordim".[1; 347 – 348.]

Ahmad Zaki Validiy 1921-yil avgust oyi o'rtalarida Samarqand shahriga kelib, mashhur Shohi Zinda yaqinidagi Hazrati Xizr masjidi yonidagi uyga ko'chib o'tadi. Bu yerda "Turkiston Milliy Birligi" tashkiloti ishlarini yuritgan. Do'stlari va maslakdoshlari bilan uchrashib, Samarqand viloyatida sovet rejimiga qarshi qurolli harakatni kuchaytirishda jonbozlik ko'rsatgan.

Turkistonda mazkur davrda bo'lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol qatnashgan Ahmad Zaki Validiy Samarqandda turganda bu yerda sovet rejimiga qarshi kurashayotgan qo'rboshilar guruhleri bilan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hududida qizil armiyaga qarshi jang qilayotgan vatanparvarlarning harbiy kuchlarini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish uchun katta ishlar qilgan. Validiy 1921-yil 23-noyabrda BXSRSning G'uzor viloyatidagi Tolqishloq degan joyda turgan Jabborbek qo'rboshi qarorgohiga keldi, bu yerga u bir necha kun bo'lib Sharqiy Buxoro qo'rboshilarining yetakchisi Ibrohimbek yuborgan vakillar bilan uchrashadi. Validiyning Samarqand tarafdin G'uzorga kelishidan asosiy maqsad, uning o'zi yozishicha, "G'uzor, Shahrisabz, Qarshi shaharlari o'rtasidagi hududlarni qo'l ostiga olgan Jabborbekning yonida bo'lib, bu yerlarning harbiy noziri bo'lgan

Abdulhamid Orifovni ko‘magida harbiy qismlarga kiritilgan zobitlarimiz bilan aloqada bo‘lib turish edi. Anvar Posho ruslarni Sharqiy Buxorodan quvib chiqara boshlasa, o‘sha uchta shahardagi zobitlar qo‘lidagi garnizonlar bilan Poshoga qo‘shilib, sharqqa kelayotgan ruslarning yo‘lini kesib, asir qilib olib, qurol-aslahalarni, ma‘lumotlar va boshqa muhim narsalarni qo‘lga kiritish edi. Bu yerda Nurota va Xiva bilan aloqa o‘rnatish muhim edi. Shahrisabzdagi garnizon komandiri boshqird qo‘shini zobiti Suyundukov bilan darhol aloqa o‘rnatdim. Qarshidagi askarlar ham unga bo‘ysunar edi. Poshoning yonida bo‘lgan 30 nafar turk zobitlari va mening odamlarim bilan Buxoroning Shahrisabz-Qarshi qismlarini darhol qo‘lga kiritishimiz mumkin edi. Sharqiy Buxoroda hukumat boshida Buxoro Jumhuriyati raisi Usmon Xo‘ja bor edi. Buxoroda yashirib qo‘yilgan dinamitlari bilan Amudaryo-Zarafshon ko‘prigining kulini ko‘kka sovurishimiz kerak edi. Buxoro hukumati a‘zolarining barchasi bizga qo‘shilamiz, deb turishgan edi”. [1; 366]

Biroq Validiy umid qilgan porloq g‘alabaga, ya‘ni Turkiston va Buxoro tuproqlarini bosqinchi qizil armiyadan butunlay ozod qilishga istiqloqlarning kuchi yetmaydi. 1922-yil 4-avgustda Anvar Posho Sharqiy Buxoroda bo‘lgan janglarning birida mardlarcha halok bo‘ladi. Qarshi va Shahrisabzda turgan istiqloqlar bilan Samarqand viloyatidagi istiqloqlar ham yagona jabhada turib, qizil armiyaga qarshi yakunlovchi g‘olibona zarbani bera olishmadi. Biroq bu holatga qaramay Samarqand viloyati qo‘zg‘olonchilari sovet rejimiga qarshi kurashni bo‘shashtirmadilar.

1922-yil boshlarida Samarqand yaqinidagi Payshanba, Chelak, Yangiqo‘rg‘on atroflarida qizil askarlar bilan ko‘p janglar bo‘ladi. Bu janglarda samarqandlik vatanparvarlar dushmanga qarshi hayot-mamot kurashiga kirganliklariga amin bo‘lib, bor kuchlari bilan kurashdilar. Bu orada Ahmad Zaki Validiy tog‘lar orasidagi Saroy qishlog‘idan Qoraqulbekning bir yigiti yo‘ldoshligida Nurota, Uxum, Forish va Qo‘ytoshga boradi. Mulla Hamroqul boshchiligida Qo‘ytoshning shimoliy mintaqasida otliq askarlar guruhi tuzilib, qizil askarlarga qarshi kurashga qo‘shiladi. Xullas, 1922-yil yanvar – fevral oylarida Validiy Nurota bilan Jizzax, Samarqand bilan Kattaqo‘rg‘on, Shahrisabz bilan G‘uzor orasida bir necha marta otda aylanib, qo‘rboshilarni sovet rejimiga qarshi kurashga ilhomlantiradi. Bu paytda Validiy bilan Qoraqulbek va Jabborbek qo‘rboshilar doimiy ravishda o‘zaro aloqada bo‘lib turishgan. [1; 369]

Shunday qilib, Samarqand istiqloqlarining vazifasi viloyatning turli tomonlarida yashovchi aholini to‘plab, ularni sovet rejimiga qarshi kurashga otlantirish hamda Sharqiy Buxorodagi kurash muvaffaqiyat qozona boshlasa, Samarqand viloyatidagi temir yo‘llarni Toshkentdan ajratib, qo‘lga olishdan iborat edi. 1922-yil iyunda Jarqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on, Chorshanba degan yerlarda qizil

askarlarga qarshi qattiq olishuvlar bo'lgan. Ziyoviddin qal'asida ham to'qnashuvlar kuchayib ketadi.

Validiyning yozishicha, ular shu kunlarda Samarqandning shimolidagi Jomboyga kelishadi. Sovet hokimiyati Ochilbek qo'rboshi bilan sulh tuzish uchun muzokaralar o'tkazishga Samarqand ulamolarini jo'natishadi. Ular orasida Samarqandning Qozi Iso va Eshonxo'ja ismli taniqli ulamolari ham bo'lgan. Ular istiqloqlar bilan ba'zi bir diniy masalalar xususida gaplashgandan keyin namozda imomlik qilishni xohlashdi, ammo hech kim ularga yaqinlashmadi.[1;379–380] Ularni muzokaraga Samarqand viloyati ijroiya komiteti raisi hamda “bosmachilar”ga qarshi kurash favqulodda komissiyasi vakili qozoq Ablay Serg'oziyev jo'natgan edi. Bu davrda Samarqandda sovet hokimiyatini o'rnatishda faol qatnashgan M. O'runxo'jayevning yozishicha esa, u bilan A. Serg'oziyev qizil armiyaning diviziyasi bilan Jomboyga kelishadi.

Qizil armiya qo'mondonligi ham ayni shu yo'l bilan bir ofitserni jo'natib, Ochilbek bilan gaplashmoqchi ekanligini bildiradi. Validiy o'z ixtiyori bilan Ochilbekning roziligini olib, u ham muzokarlarda qatnashadi. Bu holatni Validiy o'z xotiralarida quyidagicha tasvirlaydi: “Uchrashuv Chelak va Kumush tog'i qishloqlari orasida bo'lishi kerak. Ikki tomondan ham beshtadan odam kelishi lozim edi. “Maxdumlar” deb atalgan “bosmachilar” gaplashiladigan joyni qo'riqlab, o'rab turadilar. Ruslar hujum qilmasalar, ular ham hech kimga tegmaydilar. Ochilbek va Bahrombek mening ixtiyoriga ruscha biladigan Abdulhalim bilan yana bir kishini berishdi. Muzokarlarni maxdumlar olib borishdi. Men rus zobiti bilan gaplashmayman, o'zimni ruscha bilmagan kishi qilib ko'rsataman. Shunday ham qildik. Zobit jangni to'xtatib, sovetlar bilan kelishinglar dedi. Gaplashuvdan natija chiqmadi. Biz ko'rishgan joy tarixda Amir Temur bilan Amir Husayn yaqinlari yarash tuzish uchun uchrashgan joydir. Uchrashuv o'sha zamonda ham samara bermagan edi. Ruslar shu tarzda ahvolni bilmoqchi bo'lgan edilar, lekin bundan biror natija chiqmasligini o'zlari ochiq ko'rdilar”. [1; 380.]

Xullas, 1922-yilda Samarqand viloyatida qurolli harakat yana ham kuchayib ketadi. Samarqand viloyati «bosmachilik»ga qarshi kurash favqulodda uchlik (troyka) komissiyasi tomonidan Markazga jo'natilgan hujjatlarning birida bu holat quyidagicha ko'rsatiladi: «Samarqand viloyati hozirgi vaqtda hamma joyda bosmachilikning epidemik rivojlanishi bilan eng xavfli, umidsiz holatni boshdan kechirmokda».[10]

1922-yilning bahori, xususan, aprel oyida Turkistonda sovet rejimiga qarshi qaratilgan qurolli harakat o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Farg'ona vodiysi, Buxoro va Xorazm respublikalaridan tashqari Samarqand viloyatida ham bu paytda qurolli harakat kuchayib ketdi.

Sovet tarixiy adabiyotlarida e'tirof etilishicha, 1922-yil yanvar-fevral oylarida Samarqand viloyati hududining ko'pchilik qismi qurolli muxolifat tasarrufiga o'tgan. Ular bu hududlarda o'z boshqaruvlarini o'rnatishgan.

Samarqand uyezdida qo'zg'olonchilarning miqdori 500 kishi bo'lib, ularga Ochilbek qo'rboshi va uning qo'l ostidagi Ziyovuddin, Mulla Hamroqul, Mirza Polvon, Alim cho'loq va boshqalar rahbarlik qilgan. Kattaqo'rg'on uyezdida Qoraqulbek, Eshon Isoxo'jayev va boshqa qo'rboshilar harbiy guruhlariga yetakchilik qilgan. Jizzax uyezdida 200 kishi Hamroqulbek va Ochilboy qo'rboshilar rahbarligida faoliyat ko'rsatgan bo'lib, bu hudud «bosmachilik» harakati eng kuchaygan joylardan biri hisoblangan.[5;125-126] Xo'jand uyezdida Mulla Abdulahad, Turdiboy, Xolbo'tabek Eshboyev va Islomqul Sultonboyev singari qo'rboshilar guruhlari tarkibida 1800 kishi bo'lgan. Matcho qishlog'ida 1400 «bosmachi» bo'lgan. Ularga yirik qo'rboshilar – Ahmadxo'ja, Asror, To'rabekov va boshqalar rahbarlik qilishgan.[10]

Tarixdan ma'lumki, 1922-yil 10-15-aprelda Boysundagi Kofirun qishlog'ida Turkiston qo'rboshilarining mashhur harbiy sarkarda va siyosiy arbob Anvar Posho (1881-1922) boshchiligida katta qurultoyi o'tkazilgan.[7; 90-92] Anjuman kunlarida Anvar Poshoning taklifi bilan bir guruh nufuzli vakillar shu kunlarda Samarqandda bo'lishi kutilayotgan Turkiston musulmonlarining qurultoyiga vakil qilib jo'natildi. 15-20-aprel kunlari esa Samarkand shahrida Turkiston musulmonlarining yarim ochiq holatda II qurultoyi bo'lib o'tgan. Bu qurultoyi «Turkiston Milliy Birligi» tashkiloti faollari uyushtirgan edi. Unda Farg'ona va Samarqand viloyatlaridagi barcha nufuzli qo'rboshilar o'ntadan yigitlari bilan, shuningdek, Xorazm va Buxoro respublikalaridan ko'plab qo'rboshilar, Sirdaryo, Zakaspiy, Oqmo'la (Aktyubinsk) viloyatlaridan ko'plab vakillar ishtirok etdilar.

Boymirza Hayit (1917-2006) fikricha, anjumanda Farg'ona vodiysi harbiy muxolifatining rahbari SHermuhammadbek qo'rboshi (1893-1970) istiqlol kurashi haqida katta ma'ruza qildi. Qurultoy oxirida 7 bo'lim va 36 banddan iborat maxsus Qonun qabul qilindiki, u SHermuhammadbek boshchiligida tuzilgan Turkiston - turk mustaqil islom jumxuriyatining Muvaqqat Konstitutsiyasi - Asosiy Qonuni edi. Bu hujjat Turkiston o'lkasidagi Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand, Yettisuv, Zakaspiy viloyatlari hamda Amudaryo bo'limi endilikda Turkiston - turk mustaqil islom jumhuriyati tarkibiga kiritilganligini qonun yo'li bilan mustahkamladi. Unda yozilishicha, Turkiston muvaqqat hukumati 15 kishidan iborat bo'lishi, ular orasidan mamlakat prezidenti, vitse-prezidenti va bosh kotib saylanmog'i, bu uch kishidan iborat ijroiya qo'mita poytaxtda doimiy ravishda ishlashi ko'zda tutilgan edi. Hukumatning beshta a'zosi Farg'ona vodiysidagi Namangan, Andijon, Marg'ilon, Qo'qon, O'sh kabi beshta viloyatning harbiy boshliqlari qilib belgilanadigan bo'ldi.

Qolgan 7 kishi esa harbiy; tashqi ishlar; ichki ishlar, pochta va telegraf; diniy ishlar; moliya; adliya; transport vazirlari qilib tayinlanishi kerak edi.[3;203-208]

Shunday qilib, SHermuhammadbek boshchiligida bundan ikki-yil oldin tuzilgan Turkiston muvaqqat hukumati Samarqandagi qurultoyda rasmiy tasdiqlandi. Afsuski, hukumat a'zolari bu tarixiy shaharda bir oydan ortiq tura olmadilar. Chunki ularni qizil armiya qismlarining kuchli zarbalaridan himoya qilish tobora qiyinlashayotgan edi. Shuning uchun hukumat o'z qarorgohini qurolli harakatning markazi bo'lgan Farg'ona vodiysiga ko'chirdi. Faqatgina uch oy mobaynida hukumat o'z qarorgohini besh marta o'zgartirishga majbur bo'ldi (Samarqand, Namangan, O'sh, Marg'ilon atrofidagi G'oyibota va Norin).

Ushbu anjuman o'tayotgan kunlarda Samarqand va uning atroflarida qizil armiyaga qarshi janglar avj olib ketdi. 1922-yil 1-aprelda Samarqand viloyati rahbarlaridan A. Serg'oziyev va Xrushchev tomonidan Butunrossiya MIK va RSFSR XKSning Turkiston ishlari bo'yicha komissiyasi (Turkkomissiya) nomiga jo'natilgan maxsus shifrlangan ma'lumotda quyidagilar yozilgan edi: «So'nggi ikki kun ichida bosmachilar Ochilbek, Bahrombek, Maxsum, Ochimiyon, Hamid boshchiligida butun Samarqand viloyatini egallashdi. Sovet hokimiyati faqat shaharda saqlanib qoldi, Samarqand uyezdidagi barcha volostlarning rahbarlari Samarqand shahriga kelishdi. Uyezdlarning rahbarlari ommadan uzilib qolgan. Bosmachilar oziq-ovqat zahiralari muntazam ravishda tashib ketmoqda... Barcha qurboshilar guruhlarini muayyan reja asosida birlashayotganligi kuzatilmoqda... Ikki kun avval Hamid qo'rboshi Xo'jandga hujum qildi, bitta pulemyot va 17 otni o'lja oldi, 6 kishini o'ldirdi va 7 kishini yarador qildi, faqat o'z vaktida yordam kuchlari yuborilganligi uchun qizil askarlar Hamid guruhining hujumini qaytarib qolishdi...». [10]

1922-yil 10-mayda O'ratepa RVS raisi tomonidan tayyorlangan maxsus ma'ruzada ham viloyatda bu harakat kuchayganligidan cho'chish holatlari yaqqol namoyon bo'lgan: «Bosmachilik shiddat bilan rivojlanmoqda, olingan ma'lumotlarga qaraganda Xolbo'taning 250 kishilik yaxshi qurollangan suvoriylar dastasi Islom qo'rboshi guruhiga borib qo'shildi. Matcho beringing ukasi Asrorxon 350 kishilik guruh bilan yo'lga chiqdi va Shahrixon volostida turibdi...». [10]

Bu paytda Xo'jand uyezdida Turdiboy va Norqo'zi kabi qo'rboshilarning dastalari ham o'z harakatlarini faollashtirgan edilar.

Xulosa. Samarqand viloyatidagi istiqloqlilik harakatining rivojlanish dinamikasida 1920 – 1922-yillar alohida ajralib turadi. Aynan ushbu bosqichda istiqloqlilar Samarqandda katta yutuqlarga erishdilar. Ochilbek va Bahrombek boshchiligidagi qo'zg'olonchilar guruhlari (ular o'nlab qo'rboshilar va sardorlarning qurolli harbiy guruhlaridan tuzilgan edi) qariyb butun viloyat hududida sovet hokimiyatini ag'darib tashladilar. Ular qizil askarlardan ozod qilingan hududlarda

o'z boshqaruv hokimiyatini tashkil qilishdi, bolsheviklarning boshqaruv idoralari tugatildi. Sovet hokimiyati faqat Samarqand, Jizzax kabi yirik shaharlarning yevropacha qismlari (yangi shaharlarda) hamda ayrim uyezd markazlarida saqlanib qoldi.

Ahmad Zaki Validiyning Buxorodan Samarqandga kelishi hamda Anvar Poshoning Sharqiy Buxorodagi faol harakatlari natijasida viloyatda istiqloqlilik harakati kuchayib, 1921-yil boshlaridan to 1922-yil kuzigacha o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Qo'rboshilar huzurida maxsus siyosiy va harbiy maslahatchilar faoliyat ko'rsatib, istiqloqlilar kurashini yagona maqsad sari yo'naltirib turdilar. Turkiston taraqqiyparvarlari, ya'ni jadidlari va ulamolar, ayrim boshqird va turk zobitlari Samarqand viloyatida sovet rejimiga qarshi olib borilgan qurolli harakatning g'oyaviy rahnamolari va mafkurachilari bo'lishdi.

Shunday qilib, 1920-1922-yillarda Samarqand viloyatida istiqloqlilar qizil armiyaga qarshi hayot-mamot janglarida qatnashdi. Ularning bu kurashi xalq ommasi tomonidan muntazam ravishda qo'llab-quvvatlandi. Qo'rboshi guruhlar doimiy ravishda mahalliy aholining madadiga tayanib, sovet rejimiga qarshi kurashda katta yutuqlarga erishdilar. Ajdodlarimizning erk va ozodlik uchun to'kkan qonlari behuda ketmadi.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. Туркистонда мустақиллик ва озодлик учун курашлар тарихи. Таржимон, илмий таҳрир муаллифи ва нашрга тайёрловчи: М. Абдурахмонов. –Тошкент: “Истиқлол нури”, 2014
2. Али Бадемси. 1917-1934 Туркистан Милли Истиклал Ҳаракети. Энвер Паşa ве Корбаşлар. 1.сїлт. –Истанбу: Кутлугъ яйнларї, 2008.
3. Баймирза Ҳайит. Туркистаним ХХ жаҳрхундерт. - Дармстадт, 1956.
4. «Известия» (Ташкент). 15 ноября 1921 г.
5. Келдиев Т.Х. Разгром контрреволюции в Ферганской и Самаркандской областях Туркестанской АССР (1918-1923 гг.). – Тошкент: Госиздат УзССР, 1959.
6. Ражабов Қ., Ҳайдаров М. Туркистон тарихи (1917-1924 й.). – Тошкент: “Университет”, 2002 .
7. Туркистанли Абдуллаҳ Ресэб Байсун. Туркистан Милли Ҳаракетлери. - Истанбул, 1945.
8. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2000.

9. ЗекиВелидиТоган. Ҳатиралар. Тўркистан ве диғэр Мўслўман Доғу Тўрклеринин милли варлик ве кўлтўр мўсаделелери. 2-баски. –Анкара: Тўркие диянет вакфи яйнлар, 1999.

10. Ўз МА, 17-фонд

11. Ўз МА, 33-фонд

12. Ўз МА, 39-фонд

13. Ўз МА, 343-фонд

14. Самарқанд ВДА, 31-фонд

15. Самарқанд ВДА, 65 фонд

16. Самарқанд ВДА, 1685 фонд

17. Самарқанд ВДА, 1656-фонд